

THE DESCRIPTION OF STATIONS OF THE MYSTICAL PATH IN THE POEM “MANTIK AT-TAYR” BY FARID AD-DUN 'ATTAR

Abdugani ZAKHADULLAEV

Teacher

Institute of Entrepreneurship and Pedagogy of Denau
Denau, Uzbekistan

FARIDUDDIN ATTORNING “MANTIQ UT-TAYR” DOSTONIDA SAYR-U SULUK MAQOMLARI TAVSIFI

Abdug'ani ZAXADULLAYEV

O'qituvchi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Denov, O'zbekiston

ОПИСАНИЕ СТОЯНОК МИСТИЧЕСКОГО ПУТИ В ПОЭМЕ «МАНТИК АТ-ТАЙР» ФАРИД АД-ДУНА АТТАРА

Абдугани ЗАХАДУЛЛАЕВ

Преподаватель

Институт предпринимательства и педагогики Денаву
Денаву, Узбекистан zakhadullayevabdugani@gmail.com

For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Zaxadullayev A. Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonida sayr-u suluk maqomlari tavsifi.//O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 2. — B. 232-245.

<https://doi.org/10.36078/1716274748>

Received: February 22, 2024

Accepted: April 17, 2024

Published: April 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. Since the early periods of Sufism, different views have been expressed regarding the types, limits, characteristics, number and sequence of sites (maqams) of the mystical path (sayru suluk) — different Sufis and authors pointed out that the mystical path has from three to a thousand sites, and that these sites begin with taub (repentance), talab (search) or iradat (desire), and end with rida (contentment), marifat (cognition), fana (disappearance), baka (stay) or ittisal (connection). The Sufi poet and thinker Farid al-din Attar (1145–1221) also described the sites of the mystical path in his Sufi poem "Mantik at-tayr" ("Speech of Birds"). He considered them as consisting of seven statuses in the sequence talab (search), ishq (love), marifat (cognition), istigna (contentment with one's position), tawhid (monotheism), khairat (confusion), fana (disappearance) and baka (stay). In this work, these seven statuses are described in the form of seven valleys. In the realm of Uzbek Sufism, the exploration of the mystical path and its integral role in the theory and practice of Sufism and the depiction of these sites in the works of Sufi poets remains largely uncharted territory. From this perspective, the themes addressed in this article hold significant relevance, offering a fresh perspective on a topic of enduring scholarly interest. In particular, the study of the views of the Sufi poet and thinker Fariduddin Attar, a famous representative of Persian literature who had a great influence on the work of the Uzbek poet Alisher Navoi, is important for determining the issue of tradition and innovation of two poets who wrote poems on this topic. The author used descriptive, structural-descriptive and descriptive-functional research methods.

Keywords: Farid ad-din 'Attar; “Mantiq at-tair”; seven valleys; mystical path; stations.

Annotatsiya. Tasavvufning ilk davrlaridan boshlab sayr-u suluk maqomlarining turlari, chegarasi, xususiyati, soni va ketma-ketligi borasida turli xil qarashlar bildirilgan – turli so‘fiylar va mualliflar sayr-u sulukda uchtdan mingtagacha bo‘lgan maqom mavjudligini uqtirib, bu maqomlarning tavba, talab yoki irodatdan boshlanishi hamda rizo, ma’rifat, fano, baqo yoki ittisol bilan poyoniga yetishini aytishgan. So‘fiy shoir va mutafakkir Farididdin Attor (1145–1221) ham o‘zining so‘fiyona mazmundagi “Mantiq ut-tayr” dostonida so‘fiylik yo‘lining – sayr-u sulukning maqomlar deb atalmish bosqichlarini o‘z nuqtayi nazaridan tavsiflab, ularni talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tawhid, hayrat hamda faqr va fano ketma-ketligidagi yetti maqomdan iborat deb bilgan. Bu asarda mazkur yetti maqom yetti vodiy ko‘rinishida tasvirlanadi. O‘zbek tasavvufshunosligida, sayr-u suluk maqomlari va ularning tasavvuf nazariyasi hamda amaliyotida tutgan o‘rni, so‘fiy shoirlar ijodida ushbu maqomlar tasviri va tavsifi yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu jihatdan olib qaralganda, mazkur maqolada ko‘tariladigan mavzu-masalalar dolzarb. Jumladan, o‘zbek adapiyotining yirik vakili, Alisher Navoiy ijodiga katta ta’sir o‘tkazgan forsiy adapiyotining atoqli namoyandasи, so‘fiy shoir va mutafakkir Farididdin Attorning sayr-u suluk maqomlari borasidagi qarashlarini maxsus tadqiq etish Navoiyning shu mavzuda bitilgan dostonidagi an‘ana va o‘ziga xoslik masalasiini aniqlashda muhim ahaviyat kasb etadi. Maqolada belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun muallif tavsiflash, strukturaviytavsifiy hamda tavsifiy-funksional tadqiqot usullaridan foydalangan.

Kalit so‘zlar: Fariduddin Attor; “Mantiq ut-tayr”; yetti vodiy; sayr-u suluk; maqomlar.

Аннотация. Начиная с ранних периодов суфизма, относительно видов, пределов, характеристик, количества и последовательности стоянок (*макамов*) мистического пути (*сайру сулук*) высказывались разные взгляды — разные суфии и авторы указывали, что у мистического пути существует от трех до тысячи стоянок и что эти стоянки начинаются с *тауба* (покаяние), *талааб* (поиск) или *ирадат* (желание) и заканчиваются с *рида* (довольство), *ма’рифат* (познание), *фана* (исчезновение), *бака* (пребывание) или *иттисал* (соединение). Суфийский поэт и мыслитель Фарид ад-дин Аттар (1145–1221) тоже в своей суфийской поэме «Мантик ат-тайр» («Речь птиц») описал стоянки мистического пути. Он рассматривал их как состоящие из семи статусов в такой последовательности: *талааб* (поиск), *ишик* (любовь), *ма’рифат* (познание), *истигна* (довольство своим положением), *тахид* (единобожие), *хайрат* (смятение), *фана* (исчезновение) и *бака* (пребывание). В этом произведении эти семь статусов описываются в виде семи долин. В исследованиях в узбекской науке суфизма стоянки мистического пути и их роль в теории и практике суфизма, а также описание стоянок мистического пути в произведениях суфийских поэтов недостаточно изучены. С этой точки зрения темы, затронутые в данной статье, являются актуальными. В частности, исследование взглядов суфийского поэта и мыслителя Фариуддина Аттара, известного представителя персидской литературы, оказавшего большое влияние на творчество узбекского поэта Алишера Навои, имеет важное значение для определения вопроса традиции и новаторства двух поэтов, написавших поэмы по данной теме. Для реализации поставленной цели в статье автор использовал описательный,

структурно-описательный и описательно-функциональный методы исследования.

Ключевые слова: Фарид ад-дин 'Аттар; «Мантик ат-тайр»; семь долин; мистический путь; стоянки.

Kirish

Tasavvuf yo‘liga kirgan kishi — so‘fiyning ushbu yo‘lni boshdan-oxir og‘ishmasdan bosib o‘tishi va oxir-oqibat ko‘zlangan maqsadga — Xudoning visoliga yetishi uchun bajarilishi lozim bo‘lgan shartlari ichida eng muhimi — bu yo‘ldagi tegishli bosqichlar, ya’ni maqomlarni bosib o‘tish hisoblanadi. Boshqacha aytganda, maqomlar va hollar so‘fiylik yo‘li yoxud sayr-u sulukning poydevori, tasavvufni shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biridir.

O‘zbek tasavvufshunos olimi Komiljon Rahimovning eslatishicha, tasavvufning ilk davrlaridan boshlab maqomlar va hollarning farqi, chegarasi, xususiyati, turlari, soni va ketma-ketligi borasida turlicha fikrlar bildirilgan. Bunda bir guruh so‘fiylar va tasavvufga oid asarlar mualliflari maqom va holni bir-biridan ajratmaganlar, ya’ni ularga bir xil hodisa deb qarashgan, ikkinchi guruh esa maqom va holni bir-biridan farq qiluvchi hodisalar sifatida ta‘riflagan holda, ularning har xil turlari, sonlari va xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritganlar (5, 153–156). Jumladan, mazkur olimning aniqlashicha, maqom va holga yagona hodisa sifatida qaragan so‘fiylar va nazariyotchi olimlardan Abu Sulaymon Doroniy (vaf. 215/830) so‘fiylikda uch maqom mavjudligi to‘g‘risida gapirib, ularni *zuhd, vara*’ va *rizo* ketma-ketligida (21, 189; 17, 421), Shaqiq Balxiy (vaf. 194/810) to‘rt “manzilat” mavjudligi to‘g‘risida so‘z yuritib, ularni *zuhd, xavf, shavq* va *muhabbat* ko‘rinishi va ketma-ketligida (13, 108), Yahyo ibn Muoz (vaf. 258/871) sayr-u sulukning yetti maqomi mavjudligini ta‘kidlab, ularni *tavba, zuhd, rizo, xavf, shavq, muhabbat* va *ma’rifat* ketma-ketligida, Hakim Termiziy (205/820–320/932) ham sayr-u sulukda yetti manzil borligini aytib, ularni *tavba, zuhd, adovat un-nafs, muhabbat, qat’ ul-havo, xavf* va *qurbat* ketma-ketligida (7, 8–19), Abu Tolib Makkii (vaf. 386/996) esa tasavvufning to‘qqiz maqomi mavjudligini aytib, ularni *tavba, sabr, shukr, rajo, xavf, zuhd, tavakkul, rizo* va *muhabbat* ketma-ketligida eslatgan (22, 499–1166) bo‘lsa, Abu Mansur Isfahoniy (vaf. 1028) *tavba* bilan boshlanib *himmat* bilan tugovchi qirq maqom (8, 132–149), Abu Abdurrahmon as-Sulamiy (vaf. 412/1021) *tavba* bilan boshlanib, *jam’ va tafriqa* bilan tugovchi qirq to‘rt maqom (19, 477–495), Abdulloh Ansoriy (396/1006–481/1089) *tavba* bilan boshlanib, *fano va baqo* bilan tugovchi yuz maqom (9, 29–230), Ro‘zbehon Baqliy (522/1128–606/1209) esa umumiylis hisobda ming maqom (18, 11–300) mavjudligi to‘g‘risida so‘z yuritgan (5, 151–153).

Birinchilardan bo‘lib maqom va holga bir-biridan alohida hodisalar sifatida yondashgan Abu Nasr Sarroj Tusiy (vaf. 378/998) so‘fiylikda yetti maqom (*tavba, vara’, zuhd, faqr, sabr, tavakkul* va *rizo* ketma-ketligida) va o‘n hol (*muroqaba, qurb, muhabbat, xavf, rajo, shavq, uns, itmonina, mushohada* va *yaqiyin* ketma-ketligida) mavjudligini ta‘kidlagan (20, 68–104). Aytish mumkinki, aynan ushbu muallif birinchilardan bo‘lib maqom

va holning bir-biridan farqini ko'rsatish va ularning har biriga aniqroq ta'rif berishga uringan. Jumladan, Sarrojning fikricha, maqom solikning o'z sa'y-harakatlari — riyozatlari va mujohadatlari natijasida qo'lga kiritiladigan yoki erishiladigan daraja bo'lsa, hol sayr-u suluk bosqichlarini bosib o'tish jarayonida solikda uning o'zi istamagan holda yuz beradigan, ya'ni solikning urinishlari natijasida qo'lga kiritiladigan emas, balki Xudo tomonidan unga ato qilinadigan holatdir (5, 152).

Shuningdek, Komiljon Rahimovning aniqlashicha, aksariyat manbalarda tavba birinchi maqom sifatida eslatilgan bo'lsa-da, turli manbalarda sayru sulukning oxirgi maqomi sifatida rizo, ma'rifat, fano, baqo yoki ittisol eslatib o'tilgan (5, 152). Shuningdek, ayrim tushunchalar (masalan, *qurb*, *muhabbat*, *xavf*, *rajo*, *shavq*, *uns*, *fano*, *baqo* va boshq.) ba'zi manbalarda maqom, boshqa manbalarda esa hol deb ta'riflangan. Bundan tashqari, boshqa manbalarda *tarab*, *huzn*, *qabz*, *bast*, *haybat*, *g'alaba*, *vajd*, *sahv*, *sukr*, *g'aybat*, *huzur* kabi boshqa hollar mavjudligi to'g'risida ham so'z yuritiladi (3, 26–36; 2, 152; 4, 349–378; 6, 127–151, 172–186; 1, 51–64; 11, 307–310, 735–739; 12, 125–148).

Bularning barchasini xulosa qilib aytish mumkinki, butun tasavvuf tarixi davomida so'fiylik maqomlari va hollari o'rtasida aniq chegara qo'yilmagan bo'lib, ulardan har birining turlari, soni, xususiyatlari va ketma-ketligi borasida yagona yoki umumiylar qarash shakllanmagan. Boshqacha qilib aytganda, nafaqat har bir so'fiylik maktabi, oqimi yoki tariqati, balki har bir yirik so'fiy tomonidan ham maqomlar va hollarning o'ziga xos tizimi shakllantirilgan.

Shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, tasavvufning birmuncha shakllangan va falsafiyashgan keyingi davrlarida sayr-u suluk maqomlari, tasavvufning tariqatlargacha — XII asrgacha bo'lgan davridagidan farqli o'laroq, markaziy o'rin tutmasa-da, so'fiylikning muhim va zaruriy shartlaridan bo'lib qoldi. Bu davrda turli so'fiylik tariqatlarida, shuningdek, tasavvuf adabiyotining turli vakillari ijodida tasavvufning boshqa asosiy tushunchalari qatorida sayr-u suluk maqomlari ham, xuddi tasavvufning ilk davrlarida bo'lgani kabi, turlicha son va nomlarda bayon qilindi.

Asosiy qism

O'zidan bir devon, "Muxtornoma" ruboilar to'plami, "Mantiq ut-tayr", "Xusravnoma", "Asrornoma", "Illohiynoma", "Musibatnama", "Bulbulnama", "Pandnama", "Besarnoma", "Ushturnoma" va "Javhar uz-zot" dostonlari hamda "Tazkirat ul-avliyo" tazkirasini qoldirgan Farididdin Attor (1145–1221) ham so'fiylik tariqatlaridan biri bo'lmish *kubroviya* tariqatinining a'zosi, ushbu tariqat asoschisi Najmiddin Kubro (1145–1221) va uning shogirdi Majididdin Bag'dodiyning (vafoti 1219) muridi bo'lgan (15, 1). Attor shunchaki tariqat a'zosi bo'lgan so'fiy bo'lib qolmasdan so'fiylik g'oyalarini adabiyotga ham olib kirgan, o'z she'rlari vositasida kuylagan. Jumladan, sayr-u suluk maqomlari ushbu buyuk so'fiy shoir va mutafakkir asarlarida ham o'ziga xos talqin etilgan.

Farididdin Attorning so'fiyona mazmunda bitilgan asarlaridan biri — "Mantiq ut-tayr" ("Qushlar suhbat") dostonidir. Dostonda bir guruh qushlarning Hudhud yo'lboshchiligidagi barcha qushlarning shohi

hisoblanmish Simurg‘ huzuriga yetish maqsadida uzoq safarga chiqishlari, bu safar davomida mashaqqatlarga to‘la yetti vodiyni bosib o‘tishlari to‘g‘risidagi voqeа majoziy — allegorik yo‘lda hikoya qilinadi. Doston so‘fiyona mazmunda va unda aslida soliklarning Haq visoliga yetishish maqsadida murshid (pir, shayx) vositasida sayr-u suluk maqomlarini bosib o‘tishi majoziy tarzda bayon etilgan. Bunda qushlar soliklar, Hudhud — murshid, ular bosib o‘tadigan yetti vodiy sayr-u sulukning yetti maqomi, Simurg‘ esa Haq taologa majozan ishoradir (10, 4).

Attor “Mantiq ut-tayr” dostonida dastlab *talab*, *ishq*, *ma’rifat*, *istig ‘no*, *tavhid*, *hayrat* hamda *faqr-u fano* vodiylari deb nomlanuvchi yetti vodiy, ya’ni sayr-u sulukning yetti maqomini umumiy tarzda sanab o‘tadi:

Guft: moro haft vodiy dar rah ast,
Chun guzashtiy haft vodiy, dargah ast.

Hast vodiyi talab og ‘ozi kor,
Vodiyi ishq ast az on pas bekanor.

Pas seyum vodiyist oni ma’rifat,
Pas chahorum vodiyi istig ‘nosifat.

Hast panjum vodiyi tavhidi pok,
Pas shashum vodiyi hayrat sa ’bnok.

Haftumin vodiyi faqr astu fano,
Ba ’d az in ro ‘yi ravish nabvad turo (14, 380).

Mazmuni: “U shunday dedi: bu yo‘lda yettita vodiy bo‘lib, bu yetti vodiy bosib o‘tilganidan keyin Alloh taoloning dargohi keladi. Bu safarda bosib o‘tiladigan birinchi vodiy *talab* (Allohnin istash, izlash) vodiysidsir, undan keyin chek-chegarasi bo‘lmanan bepoyon *ishq* (Allohgaga bo‘lgan ishq) vodiysi keladi. Shundan keyin *ma’rifat* (Allohnin tanish) vodiysi deb nomlangan uchinchi vodiy, undan keyin esa *istig ‘no* (Allohdan boshqalarga biror-bir ehtiyoji bo‘lmaslik) deb nomlangan to‘rtinchchi vodiy keladi. Beshinchi vodiy pok *tavhid* (Allohnin yagona ma’bud deb bilish va faqatgina unga sig‘inish) vodiysi, undan keyin keladigan oltinchi vodiy esa mashaqqatli *hayrat* (solikning u yoki bu sabab bilan hayratga tushganligi sababli o‘ylash va tafakkur etishdan to‘xtab qolib, ne o‘ylarini, ne qilarini va ne deyarini bilmay qolishi) vodiysidir. Yettinchi vodiy *faqr* (o‘zini Alloh oldida biror-bir ahamiyatga ega bo‘lmanan hech kim va hech narsa deb bilish) va *fano* (solikning o‘z menligidan mosuvvo bo‘lib, hechkimga aylanishi va ruhan yo‘q bo‘lib ketishi) vodiysi bo‘lib, undan naryog‘iga borish senga ravo bo‘lmagay”.

Attor shundan keyin mazkur yetti vodiydan har birini quyidagi tarzda alohida-alohida tavsiflab o‘tadi.

Birinchi vodiy: Talab vodiysi. Farididdin Attor tavsifidagi yetti vodiydan birinchisi *talab* vodiysidir. *Talab* (طلب) so‘zi arab tilida *izlash*, *istash* ma’nolarini bildirib, tasavvufda Allohgaga, uning visoliga yetishni istash, shu maqsadda Allohnin, ya’nikim uning roziligidagi sabab bo‘ladigan holatlarni izlashni anglatadi.

*Chun furo ‘ oyi ba vodiyi Talab,
Peshat oyad har zamone sad ta’ab.*

*Sad balo dar har nafas in jo buvad,
To ‘tiyi gardun, magas in jo buvad.*

*Jiddu jahd in jot boyad solho,
Z-on ki in jo qalb gardad korho.*

*Mulk in jo boyadat andoxtan,
Milk in jo boyadat darboxtan.*

*Dar miyoni xun-t boyad omadan
V-az hama berun-t boyad omadan.*

*Chun namonad hech ma ’lumat ba dast,
Dil biboyad pok kard az har chi hast.*

*Chun dili tu pok gardad az sifot,
Toftan girad zi Hazrat nuri zot (14, 381).*

Mazmuni: “Talab vodisiga kirib kelganingda har bir lahzada ming mashaqqatga duch kelasan. Bu yerda har bir nafasda ming baloni ko‘rasan, koinot to‘tisi (ya’ni quyosh) bu yerda pashshachalik bo‘lib qoladi. Bu vodiyda ko‘p yillar urinib-tirishishing kerak bo‘ladi, chunki bu yerda holatlar o‘zgarib turadi. Bu vodiyda podshohlikdan voz kechishing, mol-mulkni tark etishing, o‘z qoningga g‘arq bo‘lishing va (bu dunyoga tegishli) barcha narsalardan yuz o‘girishing kerak bo‘ladi. O‘zing to‘g‘ringda darak beruvchi biror narsa qolmaganidan keyin qalbingni ham unda bor bo‘lgan barcha narsadan poklashing lozim bo‘ladi. Qalbing o‘zlik belgilaridan poklanganidan keyin Haq zot huzuridan taralayotgan nurdan qiziy boshlaydi”.

Attor tavsifida *talab* vodiysi qiyinchilik, mashaqqatlar va balolarga to‘la bo‘lib, solik bu vodiyda o‘z maqsadiga yetishi uchun ko‘p yillar tirishishi, jumladan, mol-dunyodan voz kechishi, dunyoning hoy-u havaslaridan yuz o‘girishi, qalbini Allohdan boshqa barcha narsalardan xoli qilishi kerak bo‘ladi. Solikning qalbi insonga xos xususiyatlardan poklanganidan keyin u Haq nuri bilan toblana boshlaydi, bu nur qalbga oshkor bo‘lganidan keyin esa unda Haqqa yetishishga bo‘lgan istak ming karra ortadi. Shundan so‘ng u bu yo‘lda parvona kabi o‘zini olovga uradi, yuz mashaqqatli vodiyni ham bosib o‘tishga tayyor bo‘ladi.

Ikkinci vodi: Ishq vodiysi. Farididdin Attor tavsifida solik *talab* vodiysidan keyin qadam qo‘yadigan ikkinchi vodiy *ishq* vodiysidir. *Ishq* (عشق) arab tilida *sevgi*, *sevish* ma’nolarini bildirib, tasavvufda Allohn sevish, unga oshiq bo‘lish ma’nolarida qo‘llaniladi.

*Ba ’d az on Vodiyi Ishq oyad padid,
G ‘arqi otash shud kase on jo rasid.*

*Kas dar in vodiy ba juz otash mabod,
V-on ki otash nest, ayshash x(v)ash mabod.*

*Oshiq on boshad, ki chun otash buvad,
Garmro', so 'zandavu sarkash buvad.*

*Gar turo on chashmi g'aybiy boz shud,
Bo tu zarroti jahon hamroz shud.*

*Mardi korraftoda boyad ishqro,
Mardumi ozoda boyad ishqro (14, 385–386).*

Mazmuni: “Shundan keyin ishq vodiysi paydo bo‘ladi, kimki bu vodiyya yetsa, olovga g‘arq bo‘ladi. Bu vodiyya bo‘lgan kishi olovdan boshqa narsa bo‘la olmaydi, olov bo‘la olmagan kishining hayoti esa yaxshi bo‘lmaydi. Oshiq olov kabi issiq, kuydiruvchi va bebosh bo‘ladi... Senda g‘ayb olamini ko‘rvuchchi ko‘z ochilganidan keyin olamdag'i zarralarning ham sirlaridan voqif bo‘lasan... Ko‘pni ko‘rgan tajribali, shuningdek, taqvodor kishigina ishqqa loyiq bo‘ladi”.

“Mantiq ut-tayr” muallifi talqinida bu vodiyya yetgan solik olovga g‘arq, zero bu vodiyya faqat olov mavjud, ishqqa mutbalo bo‘lgan oshiq esa xuddi olovdek, ishtiyoqli, qayg‘uli va bo‘ysunmas bo‘ladi. Kishi ishq kelganida bir lahza kufr-u imonni, gumon va ishonchni, yaxshi va yomonni farqlay olmay qoladi. Bu yerda ishq olovga, aql esa tutunga o‘xshaydi, shuning uchun ishq kelganida aql qochib ketadi. Chunki aql ishq savdosida ustoz bo‘imasdan, ishq tabiiy aqlning ishi emasdir. Solikning g‘aybni ko‘rvuchchi ko‘zlar ochilgach, olamdag'i barcha zarralar unga o‘z sirlarini so‘laydilar. Ishqqa aql ko‘zi bilan qaraydigan bo‘lsang, uni to‘laligicha ko‘ra olmaysan. Oshiq bo‘lish uchun ko‘pni ko‘rgan va taqvoli bo‘lish kerak bo‘ladi.

Uchinchi vodiy: Ma’rifat vodiysi. Farididdin Attor tavsifida solik *ishq* vodiysidan keyin uchinchi vodiy — *ma’rifat* vodiysiga qadam qo‘yadi. *Ma’rifat* (معرفة) arab tilida *tanish*, *bilish*, *bilib olish*, *bilim hosil qilish* ma’nolarini bildirib, tasavvufda Allohni tanish, Allohning zoti va sifatlari to‘g‘risida bilim hosil qilishni anglatadi.

*Ba'd az on binmoyadat peshi nazar
Ma’rifatro vodiyi be po-vu sar.*

*Hech kas nabvad, ki o‘ in joygoh
Muxtalif gardad zi bisyoriyi roh.*

*Lojaram bas rah, ki pesh oyad padid,
Har yake bar haddi xesh oyad padid.*

*Sayri har kas to kamoli vay buvad,
Qurbi har kas hasbi holi vay buvad.*

*Lojaram chun muxtalif aftod sayr,
Hamravish hargiz nagardad hech tayr.*

*Ma'rifat z-in jo tafovut yoftast,
In yake mehrobu on but yoftast (14, 390).*

Mazmuni: Undan keyin ko‘z oldingda boshi va adog‘i yo‘q bepoyon ma’rifat vodiysi gavdalanadi. Bu vodiyda har kim o‘ziga xos joyda turadi, ammo ular yuradigan yo‘llar turlidir... Natijada har bir kishining oldidan uning kuchi va imkoniga yarasha yo‘l chiqadi... Har bir kishining (uning qarshisidan chiqqan yo‘ldan) yurishi uning kamolga yetguniga qadar davom etadi, har bir kishining (Allohga) yaqinlashishi uning holiga muvofiq bo‘ladi... (Soliklarning ma’rifat vodiysidagi) sayrlari turli yo‘llardan amalga oshganligi sababli qushlardan (soliklardan) birortasi boshqa birortasi bilan yo‘ldosh bo‘la olmaydi. Shu sababli ham (bu yo‘lovchilardan har birining) ma’rifati turlicha bo‘lib, ulardan biri mehrobni, boshqasi esa butni top mish.

Farididdin Attor tavsifiga ko‘ra, ko‘plab turli-tuman yo‘llari bo‘lgan bu bepoyon vodiyya har kimning qarshisidan har xil yo‘l chiqadi. Bu vodiyni kezish har kimning kamoliga qarab, har bir kishining Allohga yaqinlashishi uning holiga qarab yuz beradi. Bu vodiyda soliklar turlicha yo‘llardan kezganliklari sababli hech qachon ikki solik bir yo‘lda bo‘lmaydi. Xuddi shu sababli ham bu vodiyni kezguvchilarining ma’rifati turlicha bo‘lib, ularning biri mehrobni topsa, boshqasi butni topadi. Ma’rifat quyoshi charaqlaganida har bir solik o‘z kuchi va irfoniy martabasiga qarab ko‘rguvchi bo‘ladi. Shunda g‘ayb sirlari unga oshkor bo‘lib, bu dunyoning olovi unga gulshan bo‘ladi. Biroq bu yo‘lda bir kishi tamomila sirlarni bilguvchi bo‘lgunicha yuz ming kishi yo‘q bo‘ladi. Bu chuqur dengizda suzmoq uchun komil inson bo‘lmoq kerak bo‘ladi.

To‘rtinchi vodiy: Istig‘no vodiysi. Farididdin Attor tavsifidagi to‘rtinchi vodiy *istig‘no* vodiysisidir. *Istig‘no* (استغنا) arab tilida *ehtiyoji bo‘lmaslik, muhtoj bo‘lmaslik* ma’nolarini bildirib, tasavvufda Allohdan boshqa biror kishi yoki narsaga biror-bir ehtiyoji bo‘lmaslik ma’nosida qo‘llaniladi.

*Ba’d az on Vodiyi Istig‘no buvad,
Na dar on da’vo-vu na ma’no buvad.*

*Mejahad az beniyoziy sarsare,
Mezanad barham ba yak dam kishvare (14, 397).*

Mazmuni: Shundan so‘ng istig‘no vodiysi keladi, bu vodiyda da’vo ham, ma’no ham bo‘lmaydi. (Bu vodiyni kezayotgan yo‘lovchi bunda o‘zgalarga bo‘lgan) ehtiyojsizlikdan shamol kabi yeladi hamda (o‘zi erishgan kuch-qudrat bilan) bir zumda butun boshli bir mamlakatni ostinustin qila oladi.

“Mantiq ut-tayr” asaridagi talqinga ko‘ra, bu vodiyda da’vo ham, ma’no ham bo‘lmaydi. Solik bunda Allohdan boshqalarga bo‘lgan ehtiyojsizlikdan sakrab-sakrab yuguradi, shamol kabi yeladi. Bu yerda yetti dengiz bir ko‘lmakka, yetti alanga bir uchqunga aylanib qolgay. Bu yerda qadrning eski va yangisi bo‘lmaydi, bunda nimadir qilsang ham, hech narsa qilmasang ham baribir.

Beshinchi vodiy: Tavhid vodiysi. Farididdin Attor solik *istig ‘no* vodiysidan keyin beshinchi vodiy *tavhid* vodiysiga qadam qo‘yishini aytadi. *Tavhid* (تَهْدِي) so‘zining lug‘aviy ma’nosi arab tilida *bir deb bilish* bo‘lib, shariyatda va tasavvufda Allohni yagona ma’bud deb bilish va faqatgina unga sig‘inish ma’nosida qo‘llaniladi.

*Ba’d az in vodiyi Tavhid oyadat,
Manzili tafrid-u tajrid oyadat.*

*Gar base binyi adad, gar andake,
On yake boshad dar in rah beshake* (14, 402).

Mazmuni: Shundan keyin tavhid vodiysi keladi, tafrid va tajrid manzili keladi... Bu yo‘lda ko‘p narsa ham, oz narsa ham bir xil miqdorga ega bo‘ladi.

Attor tavsifida *tavhid* vodiysi *tafrid* (Xudodan boshqa narsalardan yolg‘izlanish) va *tajrid* (Xudodan boshqa narsalardan ajralish) manzilidir. Solik bu vodiyga qadam qo‘ygach, Haqdan boshqani ko‘rmaydi, yaratilgan olamning turli ko‘rinishlarini bir narsa sifatida ko‘radi, o‘zini zohiran va botinan o‘ziga bog‘lab olgan barcha narsalardan voz kechadi. Solik bu dunyoning narsalaridan o‘zini uzib, Haqqa yaqinlik hosil qilganidan keyin shuni tushunib yetadiki, Allohning yagonaligi sanoq nuqtayi nazaridan emas, balki zot nuqtayi nazaridandir.

Oltinchi vodiy: Hayrat vodiysi. Farididdin Attor tavsifida solik *tavhid* vodiysidan keyin oltinchi vodiy — *hayrat* vodiysiga qadam qo‘yadi. *Hayrat* (حَيْرَةٌ) arab tilida *hayrat*, o‘zini yo‘qotib qo‘yish ma’nolarini bildirib, tasavvufda solikning Alloh to‘g‘risidagi tafakkur chog‘ida to‘satdan hayratga tushib, o‘ylash va fikrlashdan to‘xtab qolishi yoki o‘zidan va o‘z holatidan bexabar bir holga tushib qolishiga aytildi.

*Ba’d az on vodiyi Hayrat oyadat,
Kor doyim dard-u hasrat oyadat.*

*Mardi hayron chun rasad in joygoh,
Dar tahayyur monda-vu gum karda roh.*

*Go‘yad: Aslan menadonam chiz man,
V-on nadonam, ham nadonam niz man.*

*Oshiqam, ammo nadonam bar kiyam,
Na musulmonam, na kofir, pas chiyam?!* (14, 407–408)

Mazmuni: “Undan keyin hayrat vodiysi keladi, bu vodiyda sening ishing faqatgina dard-u hasratdan iborat bo‘ladi... Bu joyga yetgan kishi hayratga tushib, o‘zini unutib, yo‘lini yo‘qotib qo‘yadi... “O‘zim kimligimni bilmayman, u nima-yu men nima ekanligimni ham bilmayman. Oshiqman, ammo kimga oshiqligimni bilmayman, na musulmonman, na kofirman, unda nimaman?” — deb aytadi.

Attorning bayon etishicha, solik bu vodiyda vogelikni anglashdan ojiz bo‘lganligi sababli bu vodiyni na topa oladi, na yo‘qota oladi, balki

faqatgina o‘z dardi, hasrati va hayratini bayon etishga kirishadi. U o‘zining borligi yoki yo‘qligini ham, oshkorligi yoki yashirinligini ham, foniyligi yoki boqiyligini ham, musulmonligi yoki kofirligini ham bilmaydi. U bunda oshiqligini biladi, ammo kimga oshiqligini bilmaydi.

Yettinchi vodiy: Faqr-u fano vodiysi. Farididdin Attor tavsifida solik oldingi olti vodiyni bosib o‘tganidan keyin qadam qo‘yadigan yettinchi vodiy *faqr-u fano* vodiysisidir. *Faqr* (فقر) so‘zi arab tilida *qashshoqlik*, *yo‘qsillik* ma’nolarini bildirib, tasavvufda solikning o‘zini Allah oldida biror-bir ahamiyatga ega bo‘lmagan hech kim va hech narsa deb bilishini anglatadi. *Fano* (فنا) so‘zi esa arab tilida *yo‘q bo‘lish*, *yo‘q bo‘lib ketish*, *yo‘qolish*, *yo‘qlik* ma’nolarini bildirib, tasavvufda solikning o‘zligini, o‘z menligini *yo‘qotib*, hechkimga aylanishi hamda Haq vujudiga ruhan qorishib, *yo‘q bo‘lib ketishiga ishora qiladi*.

*Ba’d az in vodiyi Faqr ast-u Fano,
Kay buvad in jo suxan guftan ravo!*

*Ayni vodiyi faromo ‘shiy buvad,
Langi-vu karri-vu behushiy buvad.*

*Bahri kulliy chun ba junbish kard roy,
Naqshho dar bahr kay monad ba joy?!*

*Gum shudand avval qadam, z-in pas chi bud,
Lojaram digar qadamro kas nabud* (14, 413–414).

Mazmuni: “Shundan so‘ng faqr-u fano vodiysi keladi, bu vodiyda so‘zlash mumkin bo‘lmaydi. Bu unutish, gunglik, karlik va behushlik vodiysi bo‘ladi... Umumiy dengiz to‘lqinlanishga qaror qilganda suv yuzidagi izlar joyida qolarmidilar?!... Ular birinchi qadamdayoq yo‘q bo‘ldilar, yo‘lning qolgan qismida nima bo‘ladi, oqibatda qolgan qadamda (bu yo‘lda) biror kishi qolmagay”.

Attor tavsifida bu vodiy jimlik (gapirmaslik), unutish, gunglik, karlik va behushlik vodiysi bo‘lib, bunda barcha narsalar Haq nurida yo‘q bo‘lib ketadi. Solik o‘zining so‘nggi maqsadi bo‘lmish visolga erishadi — Allah visoli dengiziga yetib, o‘z manzilidan uzoqlashib ketgan tomchi kabi dengizga qaytadi. Attor bu o‘rinda Haq vujudini bahri kull, ya’ni umumiy dengizga, ikki dunyoni, ya’ni dunyo va oxiratni ushbu dengiz yuzida bir paydo bo‘lib, yana to‘lqinlarda yo‘q bo‘lib ketadigan izga mengzaydi. Uning fikricha, bu vodiyga qadam qo‘ygan kishi birinchi qadamdayoq yo‘q bo‘lib ketadi.

Xulosa

Boshqa ko‘pchilik so‘fiylar, aniqrog‘i, so‘fiy shoirlar singari Farididdin Attor ham o‘zining so‘fiyona mazmundagi “Mantiq ut-tayr” dostonida so‘fiylik yo‘lining — sayr-u sulukning maqomlar deb atalmish bosqichlarini o‘z nuqtayi nazaridan tavsiflagan. Farididdin Attor nazarida sayr-u suluk maqomlari yettita bo‘lib, ular *talab*, *ishq*, *ma’rifat*, *istig‘no*, *tavhid*, *hayrat* hamda *faqr* va *fano* ketma-ketligidagi maqomlardan iborat. Badiiy asar hisoblan mish “Mantiq ut-tayr” dostonida majoziy tarzda

tasvirlangan sayru suluk quyidagi badiiy obrazlar vositasida ifodalangan: say-ru sulukning yetti maqomi — yetti vodiy; soliklar — qushlar; Hudhud — murshid (shayx, pir); Simurg‘ — Haq taologa majozan ishora.

Farididdin Attor tomonidan yetti vodiy obrazida tasvirlangan sayr-u sulukning yetti maqomi quyidagi asosiy xususiyatlarni o‘zida jamlaydi: solik *talab* vodiysida dunyoning hoyu havaslaridan yuz o‘girish va qalbini Allohdan boshqa barcha narsalardan xoli qilish orqali uning qalbi Haq nuri bilan toblana boshlaydi va shundan so‘nggina keyingi vodiylarni bosib o‘tishga tayyor bo‘ladi; *ishq* vodiysida Allohga bo‘lgan ishq olovida yonib-kuyish orqali g‘aybni ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘ladi; *ma’rifat* vodiysida soliklardan har biri turli yo‘llardan borib, Alloh to‘g‘risida turli darajada ma’rifat hosil qilishadi, ma’rifat hosil qilgan solikka g‘ayb sirlari ochiladi, biroq bu yo‘ldagilarning hammasi ham ma’rifat hosil qilavermaydi; *istig‘no* vodiysida Allohdan boshqa biror kishi va biror narsaga ehtiyojsizlik darajasiga yetib, keng erkinlik va ulkan qudrat kasb etadi; *tavhid* vodiysida Allohdan boshqa barcha narsalardan ajralib, birgina Alloh bilan yolg‘iz qolish vositasida Allohdan boshqa biror narsani ko‘rmaydigan yaratilgan olamning turli ko‘rinishlarini bir narsa sifatida ko‘radigan bo‘lib qoladi; *hayrat* vodiysida voqelikni anglashdan ojiz qolib, hayratga tushadi va o‘zini yo‘qotib qo‘yadi; *faqr-u fano* vodiysida o‘zligini yo‘qotib, hechkimga aylanadi va ruhan Haq vujudiga qorishib, yo‘q bo‘lib ketadi.

Foydalilanlgan adabiyotlar

1. Джон А. Субхан. Суфизм. Его святые и святыни / Пер. с англ. — СПб.: Издательство «ДИЛЯ», 2005. — 256 с.
2. Ислам. Энциклопедический словарь. — М.: Наука, 1991. — 315 с.
3. Комилов Н. Тасаввуф. — Тошкент: Movarounnahr, — O‘zbekiston, 2009. — 448 б.
4. Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм. Краткая история / Пер. с англ. М.Г.Романова. — СПб.: Издательство «ДИЛЯ», 2004. — 464 с.
5. Раҳимов К. Мовароуннарх тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII–XI асрлар). — Тошкент: Akademnashr, 2020. — 400 б.
6. Хасан Камил Йылмаз. Тасаввуф и тарикаты. Перевод с турецкого А. Урманова. — М.: ООО «Издательская группа «САД», 2007. — 300 с.
7. Ҳаким ат-Термизий, Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Али. Манозил ул-ибод мин ал-ибода. (Араб тилидан Абдулқаҳҳор Шоший таржимаси; Абдурашид Баҳромов таҳрири остида). — Тошкент: Movarounnahr, 2003. — 55 б.
8. اصفهانی، ابو منصور. نهج الخاص / تصحیح نصرالله پور جوادی. مجله تحقیقات اسلامی. 1367، سال سوم. شماره 1 و 2. صص 149-132.
- (8. Isfahoni, Abu Mansur. Nahj al-xoss. Nasrulloh Purjavodiy tahriri ostida // “Islomiy tadqiqotlar” jurnali, 1367/1988-y. – № 1-2. – B. 132-149.)
9. انصاری، عبدالله بن محمد. صد میدان / به کوشش بررسی، تصحیح متن، توضیحات و فهرست ها از سهیلا موسوی سیرجانی. تهران: زوار، 1375. – 256 ص.

- (9. Ansoriy, Abdulloh ibn Muhammad. Sad maydon (Tadqiq, tahrir, izohlar va ilovalar muallifi: Suhaylo Musaviy Sirjoniy). — Tehron: Zuvvor, 1375/1996. — 256 b.)
10. تفصیلی، محمدصادق. از خاک تا سویدای افلاک با راهیان هفت شهر عشق عطار // مطالب دومین کنفرانس علمی پژوهشی "رهاافت های نوین در علوم انسانی ایران" (ایلام، ۱۷ مرداد ۱۳۹۷). — ایلام، ۱۳۹۷.
- (10. Tafsiliy, Muhammadsodiq. Tuproqdan falakning eng yuqori nuqtasigacha Attorning yetti ishq shahri yo'lovchilari bilan birga (fors tilida) // "Eron gumanitar fanlarida yangi yechimlar" ilmiy-tadqiqot konferensiyasi materiallari (Elom, 2018-yil 8-avgust). — Elom, 1397/2008.)
11. سجادی، سید جعفر. فرهنگ اصطلاحات و تعبیرات عرفانی. ویرایش دوم، چاپ هفتم. تهران، طهوری، ۱۳۷۰.
- (11. Sajjodiy, Sayyidja'far. Irfoniy atamalar va iboralar lug'ati. Ikkinchı tahrir. Yettinchi nashr. — Tehron: Tahuriy, 1370/1991. — 814 b.)
12. شعبان زاده، مریم. سیر تطور مفهوم عرفانی حال تا قرن هشتم // نشریه علمی پژوهشی پژوهش های ادب عرفانی (گوهر گویا). شماره سوم، پیاپی ۲۳ ، پاییز و زمستان ۱۳۹۱ ، ص ۱۲۵-۱۴۸.
- (12. Sha'bonzoda, Maryam. *Hijriy-qamariy VIII (milodiy XIV) asrgacha bo'lgan davrda irfoniy "hol" tushunchasining ma'noviy evolyutsiyasi* // "Gavhari go'yo" ("So'zlovchi gavhar") irfoniy adabiyot tadqiqotlari jurnali. — Tehron. 1391 (2012-2013) yilning qishi. — № 23. — B. 125-148.)
13. شفیق بلخی، ابو عبدالله. رسالت آداب العبادات / ترجمة نصرالله پورجوادی // مجلة معارف، سال ۱۳۶۶، شماره ۱۰. صص ۱۰۶-۱۲۰.
- (13. Shaqiq Balxiy, Abu Abdulloh. Risolat odob al-ibodot. Arab tilidan Nasrulloh Purjavodiy tarjimasi // "Maorif" jurnali, 1366/1987. — № 10. — B. 106-120.)
14. عطار نیشاپوری، فردالدین. منطق الطیر. محمدرضا شفیعی کدکنی. — تهران: سخن، ۱۳۸۴. — ص ۹۰۴.
- (14. Attor Nishopuriy, Farididdin. Mantiq ut-tayr (fors tilida) (Muhammadrizo Shafi'iy Kadkaniy tahriri ostida). — Tehron: Suxan, 1384/2005. — 904 b.)
15. علی محمدرضایی هفتادر. جایگاه تصوف در شعر و اندیشه عطار // مجله ویستا: <https://vista.ir/w/a/16/7ijzy>
- (15. Ali Muhammadrizoiy Haftodur. Attor she'riyati va tafakkurida tasavvufning o'rni (fors tilida) // "Vista" elektron jurnali: <https://vista.ir/w/a/16/7ijzy>)
16. فروزانفر، بدیوالزمان. شرح احوال و نقد و تحلیل آثار شیخ فریدالدین محمد عطار نیشاپوری، تهران: انجمن آثار ملی، چاپخانه دانشگاه تهران، ۱۳۴۰. — ۴۴۸ ص.
- (16. Furuzonfar, Badi'uzzamon. Shayx Farididdin Muhammad Attor Nishopuriyning hayoti va asarlari tahlili (fors tilida). — Tehron: Tehron universiteti nashriyoti, 1340/1961. — 448 b.)
17. کاشانی، محمود بن علی. مصباح الهدایة و مفتاح الكفایة / به کوشش جلال الدین همایی، تهران، ۱۳۲۳. — 240 ص.
- (17. Koshoniy, Mahmud ibn Ali. Misboh al-hidoyat va miftoh al-kifoyat (Jaloliddin Humoiiy tomonidan nashrga tayyorlangan). — Tehron, 1323/1944. — 240 b.)
- Arab tilida:*

18. ابو محمد روزبهان بقلى شيرازى. مشرب الارواح / تحقيق عاصم ابراهيم كيالي حسينى شاذلى درقاوى. دار الكتب العلميه. بيروت. 1426هـ. – 370 ص.

(18. Abu Muhammad Ro'zbehon Baqliy Sheroziy. Mashrab ul-arvoh (Osim Ibrohim Kiyoliy Husayniy Shoziliy Darqoviy tahriri ostida). — Bayrut: "Dor ul-kutub al-ilmiya", 1426/2005. — 370 b.)

19. ابى عبدالرحمن محمد بن حسين سلمى ، درجات المعاملات ، چاپ احمد طاهری عراقي ، در مجموعه آثار ابو عبدالرحمن سلمى ، ج ۱، گردآوری نصرالله پورجودی ، تهران ۱۳۶۹ ش. – 552 ص.

(19. Abu Abdurrahmon Muhammad ibn Husayn as-Sulamiy. Darajot al-muomalot. Ahmad Tohiriy Iroqiy tomonidan nashrga tayyorlangan. (Sulamiy asarlari to'plami, 1-jild). — Tehron: Nashri donishgohiy, 1369/1990. — 522 b.)

20. ابى نصر السراج الطوسي. اللمع / حققه و قدم له و خرج احاديثه الدكتور عبدالحليم محمود و طه عبدالباقي سرور. – دار الكتب الحديثه بمصر و مكتبة المثلثى ببغداد. 1380/1960. – 646 ص.

(20. Abu Nasr as-Sarroj at-Tusiy. al-Luma' (Tahrir, so'zboshi va ilovalar muallifi Abdulhalim Mahmud va Toho Abdulboqiy). — Misr: Dor ul-kutub al-hadisa; – Bag'dod: Maktabat ul-musanno, 1380/1960. — 646 b.)

21. سهورودي، عمر بن محمد، عوارف المعارف، به کوشش فاسم انصاري، تهران، ۱۳۶۴ . 72+326 ص.

(21. as-Suhrawardiyy, Umar ibn Muhammad. Avorif al-maorif (Qosim Ansoriy tomonidan nashrga tayyorlangan). — Tehron, 1364/1985. – 72+326 b.)

22. الشيخ ابو طالب المكي، محمد بن على بن عطية. قوت القلوب في معاملة المحبوب و وصف طريق المريد الى مقام التوحيد / حققه و قدم له و علق حواشى محمود بن ابراهيم بن محمد الرضوانى. دار العلوم – جامعة القاهرة. الجزء الاول. مكتبة دار التراث. الطبعة الاولى. 1422/2001 ص. 1666

(22. ash-Shayx Abu Tolib al-Makkiy, Muhammad ibn Ali ibn Atiyya. Qut al-qulub fi muomalat al-mahbub va vasfu tariq al murid ila maqom at-tasavvuf (Tahrir, so'zboshi va ilovalar muallifi: Mahmud ibn Ibrohim ibn Muhammad ar-Rizvoniyy). 2-jild. — Qohira: "Dor at-taros", 1422/2001 . 1666 b.)

References

1. John A. Subhan. Sufism. His saints and shrines / Translated from English, – St. Petersburg: Publishing house "DILYA", 2005, 256 p.
 2. Islam. Encyclopedic dictionary, M.: Nauka, 1991, 315 p.
 3. Komilov N. Sufism, Tashkent: Movarounnahr–Uzbekistan, 2009, 448 P.
 4. Knysh A.D. Musulman mysticism. A brief history / Translated from the English by M.G.Romanov, St. Petersburg: Publishing house "DILYA", 2004, 464 p.
 5. Rahimov K. The history of movarounnahr mysticism: the formation and systematization of doctrine (VIII – XI centuries), Tashkent: Akademnashr, 2020, 400 p.
 6. Hasan Kamil Yilmaz. Sufism and Sects. A. Translation from Turkish by Furmanov, M.: SAD Publishing Group LLC, 2007. , 300 p.
 7. Hakim at-Termiziy, Abu Abdullah Muhammad ibn Ali. I am the one who is the

one who is the one. (Arabic translation by Abdulqahhor Shoshiy; Abdurashid Bahromov Ed. OS.), Tashkent: Movarounnahr, 2003, 55 p.

In Persian:

8. Isfahani, Abu Mansur. Nahj al-khoss. Nasrullah Purjawadi under Ed. / / Journal of Islamic studies, 1367/1988, № 1-2, P. 132–149.)
9. Ansari, Abdullah ibn Muhammad. Sad Field (author of research, editing, comments and applications: Suhaylo Musavi Sirjani), Tehran: Zovvar, 1375/1996, 256 p.
10. Tafsiliy, Muhammadsodiq. From the bottom to the peak of Falak, along with the passengers of seven ishq cities of attor (in Persian) // materials of the research conference “new solutions in Iranian humanities” (Elom, 8 August 2018), Elom, 1397/2008.
11. Sajjadiy, Sayyidja'far. Dictionary of Iranian terms and phrases. Second Ed. Seventh edition, Tehran: Tahuriy, 1370/1991, 814 p.
12. Sha'bonzoda, Maryam. Hijri-the spiritual evolution of the Iranian concept of “hol” in the period up to the 8th (14th) century CE // “Gavhari Gushu” (“Speaker gavhar”) is a journal of Iranian literary studies, Tehran. 1391 (2012-2013) winter of the year, № 23, P. 125–148.
13. Shaqiq Balkhi, Abu Abdullah. Al-Ibadat Al-Al-al-Din, the book of al-Din. Translation from Arabic by Nasrullah Purjawadi // "Maorif" magazine, 1366/1987, № 10, P. 106–120.
14. Attor Nishapuri, Fariddin. Mantiq ut-tayr (in Persian) (under Muhammadrizo Shafi'i Kadkani Ed, Tehran: Sukhan, 1384/2005, 904 p.
15. Ali Muhammadrizoi Haftodur. The place of mysticism in the poetry and thought of Attor (in Persian) // electronic magazine" Vista": <https://vista.ir/w/a/16/7ijzy>
16. Furuzonfar, Badi'uzzammon. Analysis of the life and works of Sheikh Fariddin Muhammad Attor Nishopuri (in Persian), Tehran: Tehran University Press, 1340/1961, 448 p.
17. Koshoni, Mahmud ibn Ali. Misbah al-hidat and miftoh al-Judah (prepared for publication by Jalaliddin Humaiy), Tehran, 1323/1944, 240 p.

In Arabic:

18. Abu Muhammad Rozbehon Bakli Sherazi. Mashrab ul-ghawah (Osim Ibrahim Kiyoliy Husayni Shoziliy Darqovi Ed, Beirut:" Dar ul-kutub al-ilmiya"), 1426/2005, 370 p.
19. Abu Abdurrahman Muhammad ibn Husayn as-Sulami. Deqat al-muqalat. Ahmad Tohiri was prepared for publication by the Iroquois. (Collection of sulamian Works, Volume 1), Tehran: edition of wisdom, 1369/1990, 522 p.
20. Abu Nasr as-Sarroj at-Tusi. Al-Luma ' (edit, foreword, and author of the appendices Abdulhalim Mahmud and Toho Abdulboqiy, Egypt: Dor ul-kutub al-hadisa; – Bagdad: Maktabat ul-musanno, 1380/1960, 646 b.
21. As-Suhrawardi, Umar ibn Muhammad. Avorif al-maorif (prepared for publication by Qasim Ansari), Tehran, 1364/1985, 72+326 p.
22. Ash-Shaykh Abu Talib al-Makkiyya, Muhammad ibn Ali ibn Atiyya. Qut al-qulub fi MU'tabalat al-mahbub and wasfu tariq al murid with Maqam at-Suff (edit, foreword and author of appendices: Mahmud ibn Ibrahim ibn Muhammad ar-Rizwaniy. Volume 2, Cairo:" Dar at-taros", 1422/2001, 1666 p.